

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. \_\_\_\_\_ Imzo \_\_\_\_\_

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

FANLAR:

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: 1701341

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. To't o'rinda yasama so'zlar bilan ifodalangan hollar ishtirok etgan gapni aniqlang.  
**A) Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizishini aytди.**  
**B) Shu payt yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini ishqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshlashdi.**  
**C) Saharlab choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim.**  
**D) G'uvullab uchayotgan bo'ron ichida yigilar naridan beri bedalarni arava tagiga olib kirishdi.**
2. Qaysi gap tarkibida fe'lning munosabat shakli vazifasida qo'llangan ko'makchi morfema sonor undosh tovush bilan ifodalangan?  
**A) Otangning bolasi bo'lma, odamning bolasi bo'l.**  
**B) Nima qilay, o'rgilay, aysam, tilim kuyadi, aytmasam - dilim.**  
**C) Kimki buni tushunmabdi, u katta xatoga yo'l qo'yadi.**  
**D) Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovlarning eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi.**
3. Unim yo'q, bunim yo'q.  
Uyimda unim yo'q.  
Ishimda unum yo'q.  
Aytishga unim yo'q.  
Ushbu parchada o'zaro shakldosh bo'lgan so'zlar qaysi turkumlarga mansub?  
**A) I o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh**  
**B) 2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh**  
**C) 2 o'rinda ot, 1 o'rinda olmosh, 1 o'rinda fe'l**  
**D) 2 o'rinda ot, 2 o'rinda olmosh**
4. Nuqtalar o'rnda faqat bo'g'iz undoshi ishtirok etadigan so'zlar qatorini toping.  
**A) so...il, l...tiro, zo...id, mu...tasham**  
**B) ma...luq, mu...arrir, ishta...a, i...los**  
**C) mu...abbat, mu...ojir, ma...sulot, sa...ovat**  
**D) sa...ro, ra...mat, mu...tasham, mu...lat**
5. Berilgan so'zlardan nechtasida portlovchi undosh o'mida sirg'aluvchi undosh kelsa, so'z ma'nosini farqlab paronim juftlikni yuzaga keltiradi?  
**Qarz, sop, yonilg'i, siqim, yaroqli, adib, burch**  
A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta
6. Daraxtni undiradigan, o'stiradigan, mvasini laziz qiladigan quyosh, yer va soy bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan xalq hayotidan olingan ilhomdir.  
Ushbu gap haqida berilgan qaysi fikr to'g'ri emas?  
**A) ega, kesim, ega uyushgan**  
**B) barcha aniqlanmishlar uyushiq bo'laklarga tobela**  
**C) tobe va hokim qismlari uyushgan bo'lak bilan ifodalangan moslashuvli tobe bog'lanish hosil bo'lgan**  
**D) vositasiz to'ldiruvchi uyushiq kesimga bilvosita bog'langan**
7. Agar sen go'daklik zamoningga onang sen bilan qanday his kechirganini, o'zining esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganligini bilishni istasang, atrofingdag'i onalarga qara, ularning qollaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.  
Ushbu murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlari haqida berilgan qaysi hukm to'g'ri emas?  
**A) barcha kesimlar so'fe'l bilan ifodalangan**  
**B) shart, buyruq-istak, xabar mayli fe'llari bilan ifodalangan**  
**C) kesimlari musatqil va nomustaqlig kesimlarga mansub**  
**D) kesimlar har xil shaxs-son ma'nosidagi fe'llar bilan ifodalangan**
8. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?  
**A) U sandiqdag'i javohirlardan qisimiga sig'gancha oldi.**  
**B) Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.**  
**C) Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'rinish iljinida edilar.**  
**D) Dushman turli xiyla bilan jangchilarning tinkasini quritmoqchi edi.**
9. Qaysi javobdag'i juftlik o'zaro bir umumiyl ma'noni ifodalay oladi?  
A) tanti-mard B) adl-tik C) ahl-totuv D) qisim-siqim
10. Quyidagi gapda ma'no ko'chishining qaysi tur(lar)i qatnashgan?  
Aytmaganning dasturxoniga borib qadrimni tushirmoqchi emasman.  
**A) faqat metafora**  
**B) metonimiya, metafora**  
**C) sinekdoxa, metafora**
- D) vazifadoshlik, metonimiya
11. To'tini o'z ismini aytishga o'rgatishadi. Ismni ko'p qaytarishadi. Keyin bir kuni, ehtimol, bexosdanmi yoki o'z kayfiyatini bildirish uchunmi, u talab qilinayotgan so'zni aytib yuboradi va shu ondayoq mukofot oladi.  
Berilgan parchadagi fe'llar tarkibida qaysi nisbat qo'shimchasi qatnashmagan?  
**A) o'zlik B) majhul C) birgalik D) orttirma**
12. Bir kuni chol bechora qo'llari titrab osh suzilgan kosasini sindirdi, buni ko'rgan kelini nordon so'zlar aytib uni ko'nglini vayron qildi. Shundan keyin yigit otasini hovlining bir chekkasidagi zax uyg'a ko'chirdi.  
Ushbu parchada qatnashgan fe'llar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.  
**A) orttirma nisbatdag'i fe'l 2 o'rinda qatnashgan**  
**B) aniq nisbatdag'i fe'l 4 o'rinda qatnashgan**  
**C) o'zlik nisbatdag'i fe'l 1 o'rinda qatnashgan**  
**D) o'timli-o'timsizlik ma'nosi nisbat qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan fe'l 1 o'rinda qatnashgan**
13. Yana tushdi Rus sari yo'lim,  
Eron, sendan ketgummi hali,  
Nahot, seni bot ko'rmas bo'ldimi?  
Ona yurtga mehrim tufayli  
Yana tushdi Rus sari yo'lim.  
She'riy parchada ravish turkumiga oid so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?  
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
14. Martaba berganda fe'l ham bersa keng,  
Adl-u muruvvatdan qilmasa judo.  
Dargohi kattalar bor bo'lzin,  
lekin Kichik kattalardan asrasin xudo.  
Ushbu she'riy parchada otlashmagan sifatlar necha o'rinda qo'llangan?  
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
15. Bemavrid xeshlarimning ko'zlarida yosh ko'rsam,  
Bir mard bilan noploring taqdirlin tutash ko'rsam,  
Qaysi bir begunohni keng yo'lida adash ko'rsam,  
Bir betayin kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam,  
Ko'nglimda armon yotar  
Terskaydag'i qor misol.  
Ushbu she'riy parsha murakkab qo'shma gapning qaysi turiga mansub?  
**A) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap**  
**B) aralash murakkab qo'shma gap**  
**C) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap**  
**D) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap**
16. Barcha so'zlar noto'g'ri yozilgan javobni aniqlang.  
A) hatto, muhojir, zaxmatkash  
B) xatto, muxojir, zaxmatkash  
C) xatto, muhojir, zahmatkash  
D) hatto, muhojir, zahmatkash
17. Quyidagi berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarning qaysi biridatinish belgilaringin qo'llanish qoidasiga riyo qilimagan?  
**A) Guli dedi: "G'azaldan bahr topmagan kim?"**  
**B) Qaynonasi Bibixonim: "Bu in'omning teran ma'nosi bor", - dedi sirg'alarmi kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan.**  
**C) "Endi hamisha xonodon sohibining gapiga quluoq solgaysiz, - dedi bibixonim keliniga, - ayiganlarini so'zsiz bajargaysiz".**  
**D) Ertoyevning gapini eshitimagan Inobat birinch'iunga yuzlandi; "Umarov aka, - dedi sekin, - unisiyam kerak, bunisiyam kerak".**
18. Qaysi gap tarkibida olmoshga nisbatan hokim, harakat nomiga nisbatan tobe munosabatda bo'lgan so'z to'ldiruvchi vazifasida kelgan?  
**A) Garchi bu hol ularni oqlashiga tirnoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga biroz tasallli, o'z-o'zini aldash deysizmi - shularning biri edi.**  
**B) Darveshlarining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovin'i to'ldiradi.**  
**C) O'z Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.**  
**D) Bu masalalarni yechish kerak.**
19. Bu g'ayratli va ishbilarmon chorvador baquvvat qo'llari bilan dilkash suhabdoshini beg'uborlik va iliqlik bilan quchib, samimiy ko'rishdi.  
Mazkur gap tarkibidagi sodda yasama otlar qanday gap bo'lagi vazifasida kelgan?  
**A) ega, to'ldiruvchi, hol**  
**B) ega, aniqlovchi**

- C) ega, hol, kesim  
D) aniqlovchi, to'ldiruvchi
20. Egasi shaxs oti bilan ifogalangan gani aniqlang.  
A) Kitobxonni yo'q asar egasi tashlab ketgan uyg'a o'xshab fayzsizdir.  
B) Qalbi qog'ozdek oppoq, qog'ozdek lovullab yonadigan odamgina chinakam san'at asari yaratda oladi.  
C) Yaxshi farzand ota umrini davom ettirishi azaldan mal'um, yaxshi asar esa yozuvchi umrini davom ettiradi.  
D) Haqiqiy haykaltarosh o'lik toshdan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.
21. Ayol - go'zallik, nafosat va muhabbat timsoli, ayol bilan bog'liq tuyg'ular Sharqda qadimdan qadirlanib kelgan.  
Ushbu gapdag'i moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.  
A) 5ta B) 2ta C) 3ta D) 4ta
22. Berilganlardan ikkitadan ko'makchi morfemaga ega bo'lgan tub so'zlarni belgilang.  
1) borayotganlar; 2) o'zgarish; 3) kechirim; 4) sog'intirdi; 5) o'qiydigan  
A) 2, 3 B) 2, 5 C) 1, 4, 5 D) 1, 4
23. Taqdir kuldii,  
o'lim tegmasdan o'tib ketdi,  
qilmadi jur'at.  
Netay, axir so'nggi minutda  
pistoletim qildi xiyonat.  
She'riy parchagadi yasama so'zlar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) yasama so'zlar uchta mustaqil so'z turkumiga tegishli.  
B) 2ta affiksatsiya usulida, 2ta kompozitsiya usulida yasalgan so'zlar ishtirok etgan.  
C) Sodda yasama so'zlar bir turkumga oid so'zlardan hosil qilingan.  
D) Uchta yasama so'z gaping bosh bo'laklari vazifasida kelgan.
24. Tarkibida turlangan so'z qatnashgan gap(lar) berilgan javobni toping.  
1. Bu voqeа xuddi kechagina bo'lgandek, ammo darrov uch yil o'tibdi. 2. Chuqur va xayolchan ko'zlarida sirli va sehrli bir holat aks etadi.  
3. Yigit to'satdan gandiraklab borib tizzalab qoldi. 4. Shu payt birdan eshik sharaqlab ochildi-yu, Ertoyev kirib keldi.  
A) 2, 3 B) 2 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
25. Qaysi shoir o'zbek xalqining yig'ma obrazini  
“Sonsiz egatlarga sochilmish, ana,  
Mening orzularim, menin o'ylarim” tarzida umumlashtirgan?  
A) G'afur G'ulom B) Muhammad Yusuf C) Abdulla Oripov D) Erkin Vohidov
26. Berilgan qaysi g'azallar hasbi hol yo'nalishida yozilmagan?  
1) Turdining “Tor ko'ngullik beklar...” misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 2) Turdining “Turdiman” radifli g'azali; 3) Nodiraning “Kel, dahrni imthon etib ket...” misralari bilan boshlanuvchi g'azali; 4) Uvaysiyning “Sog'indim” radifli g'azali.  
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 2, 3 D) 2, 3, 4
27. "... mabtadan chiqarib olib, qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvachilik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin".  
Xalq dostonlaridagi qaysi ota o'z farzandi haqida shunday qayg'urgan?  
A) Boybo'ri B) Avazxon C) Boysari D) Shoir vazir
28. Onasining vafot etishi, otasining falaj bo'lib qolishi sababli kosiblik bilan ro'zg'or tebratishga majbur bo'lgan ijodkorni aniqlang.  
A) Zavqiy B) Avaz O'tar C) Maxtumquli D) Muqimiy
29. Po'lat nayza qor ustida yotarmi,  
Temir nayzang egovlasang o'tarmi,  
Sening to'rang nomardlardan emasdир,  
Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?...  
Ushbu misralar qaysi doston qahramoni tilidan aytilgan?  
A) "Rustam"da Rustam  
B) "Kuntug'mish"da Kuntug'mish  
C) "Alpomish"da Alpomish  
D) "Ravshan"da Ravshan
30. Musa Jalilning “Moabit” daftari” to'plamini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?  
A) Jumaniyoz Jabborov B) Mamarasul Boboyev C) Ergash Ochilov D) Erkin Vohidov
31. Quyidagi parcha "Zarbulmasaldagi qaysi qahramonga aloqador?"  
"... yaxshi ko'rgan to'ppisini tez oqar suvg'a oqizibdi. Necha jahd bilan
- ololmay, nochor mahrum bo'llib, aytar erdikim: Yo'qolg'ani xo'b bo'ldi. Boshimg'a tor kelyotgan edi".  
A) Ahur qassob B) Mulla Siddiq kitob C) Eshon kalla D) Otoboy Amin
32. Nasr ibn Ahmad Somoniyni beixtiyor yurtiga qaytishga majbur etgan “Mo'liyonning bo'yи bu yonga kelur” deb boshlanuvchi g'azal muallifini aniqlang.  
A) Rudakiy B) Atoiyy C) Ogahiy D) Firdavsiy
33. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da "maqtovlarga loyiq zot", "yaylovlari cheksiz zot" deya qayta-qayta ulug'langan zot kim?  
A) Shaosha B) Axura Mazda C) Mitra D) Narya Sanha
34. Shoira Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?  
A) Maknuna B) Dilshodi Barno C) Nodirabegim D) Jahon otin Uvaysiy
35. Har kima bo'lsa tabiat o'z yemak,  
Ollina kelsa mashaqqat sabr etar,  
Kim badan beslar esa keng aysh uza,  
Toryerga o'g'rasa eldan kelar.  
Ushbu she'r Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asaridagi qaysi hikoyat xulosasi sifatida keltiriladi?  
A) Tuz haqini to'lagan No'shiravoni odil haqidagi hikoyat  
B) Sayohatga chiqqan ikki xurosoniy faqir haqidagi hikoyat  
C) Bir kurashchi pahlavon hamda uning oqibatsiz shogirdi haqidagi hikoyat  
D) O'g'ri va tilanchi haqidagi hikoyat
36. Begona bo'lubdur oshnodin,  
Begonag'a oshno bo'lubdur.  
Ushbu misralarda qanday badiy san'atdan foydalilanligan?  
A) tashxis, tazod B) tardi aks, tazod C) tanosub, tajnis D) tarse' tanosub
- ### BIOLOGIYA
37. Quyonlarda qulq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar qulq suprasining uzunligi 24 sm li  $A_1A_1A_{2a}2$  genotipli urg'ochi quyon va qulq suprasining uzunligi 16 sm li  $a_1a_1A_{2a}2$  genotipli erkak quyon bilan chatishirilsa, avlodning necha foizini digeterozigota genotipli quyonlar tashkil qiladi?  
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Tishlarning qoramit rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oиласида tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irlashtirilgan turi mavjud bo'ladi?  
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malli, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishirilgandan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?  
A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. Molekulyar massasi 6600 bo'lgan oqsilning sintezi haqidagi ma'lumotni traskripsiya qiluvchi i-RNK uzunligini (nm) toping.  
Oqsil tarkibidagi har bir aminokislota qoldig'ining molekulyar massasi 120 ga teng bo'lib, nukleotidlар orasidagi masofa 0,34 nm ni tashkil etadi.  
A) 56,1 B) 18,7 C) 51,6 D) 112,2
41. O'simlik hujayrasida energetik almashinuvning ikkinchi bosqich reaksiyalari... sodir bo'ladi.  
1) anaerob sharoitda; 2) kislordor sarfi bilan; 3) glyukozaning parchalanish hisobiga; 3) sut kislotanining parchalanish hisobiga; 4) karbonat angidridining ajralishi bilan; 5) sut kislotanining hosil bo'lishi bilan; 6) CO<sub>2</sub> ning sarf bo'lishi bilan  
A) 1,3,5 B) 2,6 C) 2,5,7 D) 1,4
42. O'simlik gulining tugunchasida 60 ta arxeosporaning ko'payishi natijasida hosil bo'lgan tuxum hujayrani urug'lantirish jarayonida nechta yetilgan chang donasi qatnashadi?

- A) 120 B) 52 C) 36 D) 60
43. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlari idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?  
 1) suyakli baliqlar; 2) pardaqanotlilar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi  
 A) 3,6,7 B) 1,4,5,6 C) 3,4,5 D) 1,2,3,6
44. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi to'g'ri fikrni belgilang.  
 A) Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tukdilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqgan  
 B) Qadimgi ichaksiz kiprikli chuvalchanglar parazit yashashga moslanishi tusayli so'rg'ichililar, ulardan esa tasmimon chuvalchanglar kelib chiqgan  
 C) Qadimgi koloniya bo'lib yashovechi bir hujayrali xivchinilillardan gidersimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqgan.  
 D) Qadimgi ichaksiz yassi chuvalchanglardan to'garak chuvalchanglar, ulardan halqali chuvalchanglar kelib chiqgan.
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fandagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.  
 1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlod; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;  
 a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtiozavr  
 A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d  
 B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f  
 C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d  
 D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Biosfera tirik muddasining funksiyasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) temir bakteriyalarining xemosintezi qilishi; 2) atmosfera tarkibida kosmik chang zarralarining uchrashi; 3) hayvonlarning kislrorod yutib CO<sub>2</sub> chiqarishi; 4) vulqonlarning otilishidan tog' jinslarining hosil bo'lishi; 5) geterotroflarning tayyor organik modda bilan oziqlanishi; 6) ildizyoqli sodda hayvonlarda kalsiyning to'planishi  
 A) 1,2,3 B) 2,4,5 C) 1,3,6 D) 4,5,6
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 A) odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi  
 B) hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi  
 C) qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi  
 D) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminoz rivojlanishi
48. Kumulyativ polimeriya epistaz irsiyanishdan farq qilib ...  
 1) allel bo'lмаган genlarning o'zaro ta'siri hisoblanadi;  
 2) digeterozigota duragylarning avlodida 5 xil fenotipik sinf hosil bo'ladi;  
 3) belgining rivojlanishiha ikkita gen qatnashib, ulardan biri asosiy gen, ikkinchisi to'ldiruvchi hisoblanadi; 4) belgining rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 5) bir belgining rivojlanishi bir necha gen nazoratida bo'ladi;  
 A) 3,4 B) 2,4 C) 1,2 D) 4,5
49. Odam a'zolaridan ajraladigan gormonlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 1) glyukokortikoid; 2) androgen; 3) katexolamin; 4) timozin; 5) intermedin; 6) tripsin;  
 a) gipofizning o'rta bo'lagi; b) gipofizning orqa bo'lagi; c) qalqonsimon bez; d) epifiz; e) buyrakusti bezining po'stloq qavati; f) buyrakusti bezining miya qavati; g) oshqozon osti bezi  
 A) 1-e, 3-f, 5-b, 6-g B) 1-e, 2-e, 3-b, 5-a C) 1-e, 2-f, 3-f, 4-d D) 1-f, 3-e, 3-c, 5-a
50. II qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday muddalar bo'ladi?  
 A) antitanalar, insulin, agglutinin  $\beta$ , gemoglobin, glyukoza, fermentlar  
 B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglutinogen A  
 C) antigemofil omil, agglutinin  $\beta$ , gormonlar, vitaminlar, rezus omil  
 D) aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglutinin  $\beta$
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
 1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak
- muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi  
 A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odam organizmda ishlab chiqriladigan oqsil (a) va lipid (b) tabiatiga ega gormonlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilagan?  
 1) tripsin; 2) insulin; 3) androsteron; 4) pepsin; 5) somatotrop; 6) melanin; 7) estrogen; 8) xolesterol  
 A) a-2,5,6; b-6,8  
 B) a-4,6; b-2,5  
 C) a-1,5; b-7,8  
 D) a-2,5; b-3,7
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
 A) Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siyaplashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.  
 B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tusayli yuzaga keladi.  
 C) Quлоqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.  
 D) Harakat analizatorining olyi nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Chuchuk suv shillig'i organlarining tuzilishi haqidagi noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) yurak qorinchasidan chiquvchi qon tommiring uchi ochiq; 2) paypaslagichlari sezgi hamida ozuqani tutib og'izga yo'naltirish vazifasini bajaradi; 3) mayda tishchalar bilan oqplangan muskulli tilchasi qizilo'ngach ichida joylashgan; 4) jigar ishlab chiqargan suyuqlik oshqozon bo'shilg'iqa quyiladi; 5) bir juft tasmimon buyragining voronkasimon uchi yurak oldi bo'lmasisiga ochiladi; 6) tuxum va spermatozoidlar bitta organizmnning o'zida hosil bo'ladi  
 A) 2,4 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,5
55. Tanasi boshko'krak, qorin bo'limlardan iborat mozaik ko'rish xos bo'lgan organizmlarni aniqlang.  
 1) sariq falanga; 2) buzoqbosh; 3) zorka; 4) langust; 5) krevetka; 6) trixogramma; 7) drozofila  
 A) 4,5 B) 6,7 C) 2,3 D) 1,2
56. Bosh skeletsizlarning bosh skeletlilardan farqini aniqlang.  
 1) nerv sistemasi nerv nayidan iborat; 2) ichki skelet mavjud emas; 3) bosh va orqa miya markaziy nerv sistemasini hosil qiladi; 4) umurtqa pog'onasi rivojlanmagan; 5) qon aylanish doirasi yopiq; 6) skeleti suyak va tog'aydan iborat  
 A) 1,4 B) 3,5,6 C) 2,4 D) 1,2,5
57. Quyida keltirilgan hayvonlar qushlar (a), sudralib yuruvchilar (b), suvdaham quruqlikda yashovchilar (c) sinflariga ajratib ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 1) kazuar; 2) iguana; 3) lira; 4) povituxa; 5) xameleon; 6) agama; 7) sezarka; 8) kvaksha; 9) salamandra  
 A) a-2,3,7; b-1,5,9; c-4,6,8  
 B) a-1,3,7; b-2,5,6; c-4,8,9  
 C) a-2,5,6 b-4,8,9; c-1,3,7  
 D) a-1,5,7; b-3,4,6; c-2,8,9
58. Yirtqich umurtqali (a) va o'txo'r umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.  
 1) kojan; 2) zlatka; 3) aureliya; 4) tipratikon; 5) ko'l baqasi; 6) tillako'z; 7) suvilon; 8) termit; 9) hasva qandalasi; 10) bizon  
 A) a-5,7; b-2,6  
 B) a-1,10; b-6,9  
 C) a-4,5; b-2,8  
 D) a-1,7; b-3,6
59. Vertitsill hujayrasi qismlarda sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.  
 1) ribosomalarning shakllanishi; 2) xromosomalarning spirallahuvni; 3) r-RNK sintezi; 4) ATF sintezi; 5) uglevodlar sintezi; 6) translyatsiya;  
 a) golji majmuasida; b) yadroda; c) endoplazmatik to'rda; d) sitoplazmada; e) mitochondriyada; f) xloroplastda  
 A) 1-b, 2-d, 3-b, 4-d, 5-c  
 B) 1-b, 2-b, 3-d, 4-e, 5-f  
 C) 1-c, 2-b, 3-b, 4-d, 6-d  
 D) 1-a, 2-d, 4-e, 5-f, 6-d

60. Eukariot hujayraga oid to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) hujayra tarkibidagi mitokondriya, ribosoma va yadro qo'shqavat membranaga ega; 2) sentriolalar hujayraning tayanch elementidir; 3) lizosomalarni hosil qiluvchi organoidlar membranalni tuzilishga ega; 4) o'simlik hujayrasining selluloza qobig'idagi maxsus teshikchalar orqali qo'shni hujayraning endoplazmatik to'kanalchalari o'zaro tutashadi; 5) mitokondriyaning kristallarida ko'plab fermentlar joylashgan  
 A) 2,5 B) 1,3 C) 3,4 D) 1,2
61. Drozofila somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqidada to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
 1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 16 ta; 2) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 16 ta; 3) metafazada ikki xromatidali autosomalar soni 6 ta; 4) anafazada xromosomalar soni 16 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 8 ta; 6) interfaza G<sub>1</sub> davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 8 ta  
 A) 2,6 B) 3,5 C) 1,4 D) 5,6
62. Baqa lichinkasida tashqi jabralarining ichki jabralariga almashinishi o'zgaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?  
 A) genotipik-ontogenetik  
 B) senotipik-modifikatsiya  
 C) fenotipik-ontogenetik  
 D) genotipik-rekombinativ
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlardan ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHi restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulusidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlari orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasi tarkibidagi nechta vodorod bog'lar A va T nukleotidlari orasida joylashgan?  
 A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Gullari qiyishiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.  
 1) o'tloq sebagasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenosisuss  
 A) 1,3,4,5  
 B) 2,4,5,6  
 C) 1,2,3,6  
 D) 2,3,4,6
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.  
 A) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan  
 B) a-asosiy gulpoysi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan  
 C) a-asosiy gulpoysi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoysi shoxlangan  
 D) a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b-gullar gulpoysaga uzun bandlar bilan birikadi
66. Gullari qiyishiq, barglari murakkab tuzilgan o'simliklarni aniqlang.  
 1) o'tloq sebagasi; 2) yantoq; 3) yeryong'oq; 4) beda; 5) burchoq; 6) partenotsesus.  
 A) 2,4,5,6 B) 1,2,3,6 C) 1,3,4,5 D) 2,3,4,6
67. Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchali (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?  
 1) yantoq; 2) tok; 3) g'o'za; 4) partenotsesus; 5) burchoq; 6) liftok;  
 7) shirinmiya; 8) olma  
 A) a-6,8; b-1,5,7  
 B) a-1,2; b-4,5,7  
 C) a-2,3,8; b-1,4,5,7  
 D) a-2,4,6; b-5,7
68. Spirogyra (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.  
 1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofill pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irlsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rda oqsillar sintezlanadi; 6) mitokondriyada kislordroli oksidlanish sodir bo'ladi  
 A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
 A) Tuxum xujayrasи urug'chili qubbalaridagi arxegoniya yetiladi  
 B) Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi
- C) Hayotiy shakli daraxt, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'i qubbalarida ochiq holda yetiladi  
 D) Barglari och yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkitadan bo'lib joylashadi
70. Cho'chqa tasmasimon chuvalchangida 4ta so'rg'ichining bo'lishi, ichak bo'imasligi, nerv sistemasi soda tuzilganligi, harakatlanish deyarli yo'qligi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?  
 A) biologik progress, umumiy degeneratsiya  
 B) umumiy degeneratsiya, biologik regress  
 C) idioadaptatsiya, biologik regress  
 D) biologik progress, aromorfoz
71. Ilonbo'yin toshbaqa va botqoq toshbaqasining (a), ara to'tiqushi va kakadu to'tiqushining (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?  
 A) a-simpatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi  
 B) a-simpatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi  
 C) a-allopatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi  
 D) a-allopatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi
72. Divergensiya (a) va konvergensiya (b) hodisalarini to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
 A) a-odam va boshqa hayvonlar gemoglobin zanjiridagi aminokislotalar tarkibidagi farq; b-ko'rshapalak va qushlarning qanoti  
 B) a-dengiz toshbaqasi va delfinlarda oyoqlarning eshkaksimon bo'lishi; b-boychechak turkumiga mansub 30 ga yaqin turlarning mayjudligi  
 C) a-ixtiyozavr va suteimizuychilaridan delfinning tana tuzilishning o'xshashligi; b-delfinning oldindi oyog'i suzishga, otning oldindi oyog'i chopishga moslashganligi  
 D) a-xaltali krot, oddiy krot tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi; b-chigirkta oyog'inining sakrashga, suv qandalasi oyog'inining suzishga moslashganligi

**KIMYO**

73. Qaysi polimer zvenosi aromatik halqa saqlaydi?  
 A) nitron B) lavsan C) neylon D) kapron
74. Buten-3-kislota molekulasi tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.  
 A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
75. Azotning o'zlashtirilishida va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida katta ahamiyatga ega metallni aniqlang.  
 A) Co B) Fe C) Cu D) Mo
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 3700 ta azot atomi bor bo'lsa, shu DNK ning qo'sh spirali tarkibida nechta vodorod bog' mavjud?  
 (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)  
 A) 1200 B) 1300 C) 800 D) 1000
77. Fosfor mo'l miqdordagi kislordoda yondirilganda olingan oksid 200 g 9,8% li fosfat kislota eritmasida eritilganda fosfat kislota miqdori 3 marta ortdi. Olingan eritmaga o'yuvchi natriy eritmasidan 360 g qo'shilganda hosil bo'lgan tuz massasini (g) aniqlang. Ishqor eritmasida suvning massasi NaOH massasidan 6,5 marta katta.  
 A) 85,2 B) 72 C) 98,4 D) 14,2
78. 0,3 mol laktoza gidrolizlanishidan olingan glukozaning moy kislotali bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallah uchun necha gramm 28% li KOH sarflanadi?  
 A) 150 B) 300 C) 400 D) 200
79. 0,4 mol to'yingaan bir atomli spirtning 1/4 qismi yonishdan olingan CO<sub>2</sub> massasi shu spirtning 3/4 qismi oksidlanishdan olingan aldegid massasidan 4,4 ga kam. Spirtni aniqlang.  
 A) metanol B) etanol C) propanol D) butanol
80. Tarkibida 1 ta sp<sup>3</sup>-sp<sup>2</sup> va 9 ta sp<sup>3</sup>-s bog' tutgan benzol gomolog(lar) nitrolanganda necha turdag'i mononitrobirikma hosil bo'ladi? ( yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)  
 A) 4 B) 10 C) 6 D) 8
81. Laboratoriya sharoitida olingan azotdan O<sub>2</sub>(1), NH<sub>3</sub>(2) va NO (3) gazlarini tozalash uchun qanday reagentlardan foydalaniladi?  
 A) FeSO<sub>4</sub>; b) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>; c) qizdirilgan mis bo'lagi  
 A) 1-a, 2-c, 3-b  
 B) 1-a, 2-b 3-c

- C) 1-c, 2-a, 3-b  
D) 1-c; 2-b 3-a
82. 1,2,3,4-tetrametilsiklobutanni nexha xil digalogenli alkandan Zn metalli ta'sir ettirib olish mumkin?  
A) 2,3-dixlorbutan  
B) 1,4-dixlorbutan  
C) 1,3-dixlorbutan  
D) 1,2-dixlorbutan
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol  $\text{CO}_2$  gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.  
A) 20,1; 12  
B) 33,5; 80,4  
C) 46,9; 93,8  
D) 26,8; 53,6
84. 1:2 mol nisbatda olingan Bertole tuzi va kaliy nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtirokida qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nayni to'liq eritish uchun 200 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlanganini aniqlang?  
A) 50 B) 80 C) 40 D) 60
85. Oltingugurt uchun quyidagi allotropik holat xos emas?  
A) kvadrat B) plastik C) monoklinik D) rombik
86.  $\text{CO}$  va  $\text{CO}_2$  gazlar aralashmasining 16,8 litri (n.sh)da  $14,5 \cdot N_A$  dona elektron bo'lsa, aralashmaning massasini (g) toping.  
A) 18 B) 36 C) 27 D) 29
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 20% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 3/16; 9/16; 1/4  
B) 1/9; 2/3; 2/9  
C) 3/10; 3/10; 2/5  
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Ra (228) atomi o'zidan 3 ta  $\alpha$  va 2 ta  $\beta^-$  zarrachalarni chiqarganda hosil bo'ladigan element tartib raqamini aniqlang.  
A) 88 B) 85 C) 86 D) 84
89.  $\text{MgSO}_4 \cdot n\text{H}_2\text{O}$  kristalogidratida suvdagi elektronlar soni magniyning elektronlari sonidan 7 marta ko'p bo'lsa, n ni aniqlang.  
A) 6 B) 10 C) 8 D) 7
90.  $X^0, Y^{+2}, Z^{+3}$  ionlari elementlari davriy sistemada davr bo'yicha ketma-ket joylashgan bo'lib, ulardagi jami elektronlar yig'indisi 70 ga teng. Z elementini toping.  
A) Cr B) Mn C) Fe D) Co
91. Normal sharoitdagagi gazning bosimi 4 marta, tempeturasi 2,5 marta oshirilganda uning molyar hajmi (litr/mol) nechaga teng bo'ladi?  
A) 22,4 B) 28 C) 5,6 D) 14
92. 540 g 40%li eritmada (suv) va erigan modda mol nisbati 15:1 bo'lsa, qanday modda eriganligini aniqlang?  
A)  $\text{H}_2\text{SO}_4$   
B) glukoza  
C) saxaroza  
D)  $\text{NaOH}$
93. 5 molyalli eritma tayyorlash uchun takibida 140 g KOH saqlagan 4 molyalli eritmaga yetarli miqdorda KOH qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmadiagi KOH ning massa ulushini (%) hisoblang.  
A) 16,2 B) 21,9 C) 12,9 D) 39,1
94. Atomlar soni 1,5:1 bo'lgan saxaroza va suv  $65^\circ\text{C}$  da aralashtirilganda 110 g cho'kma va 2500 g to'yingan eritma hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan to'yingan eritmadiagi saxaroza va suv massalarini (g) aniqlang.  
A) 1600; 900  
B) 500; 2000  
C) 1190; 1310  
D) 1500; 1000
95. Eritmadagi  $\text{H}^+$  ionlari  $\text{OH}^-$  ionlaridan  $10^6$  marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
A) 4 B) 10 C) 9 D) 3
96. Quyidagi qaysi moddalar alyuminiy xlorid bilan ta'sirlashmaydi?  
A) natriy sulfid  
B) natriy sulfat  
C) natriy karbonat  
D) natriy gidroksid
97.  $\text{X}_2\text{YCl}_2 + 2\text{HCl} \rightarrow 2\text{XCl}_2 + \text{H}_2\text{Y}$  reaksiya bo'yicha 67,5 g noma'lum xlorid moddadan 95 g  $\text{XCl}_2$  olingan bo'lsa, hosil bo'lgan  $\text{H}_2\text{Y}$  moddaning massasini (g) aniqlang. [Ar(X); Ar(Y)=3:2]  
A) 6,8 B) 9,0 C) 3,6 D) 4,5
98. 200 g 16% li mis (II) sulfat eritmasi to'liq elektroliz qilinganda 17,5% li eritma olindi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini aniqlang.  
A) 8 B) 8,4 C) 0,4 D) 2,4
99. 0,2 mol ishqoriy metal oksididan uning 34,8 g sulfati yoki necha gramm xloridini olish mumkin?  
A) 29,8 B) 14,9 C) 74,5 D) 59,6
100. Bertole tuzi va kaliy nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtirokida qizdirilganda olingan kislrorod mis naychadan o'tkazildi. Bunda mis naychaning 40% i oksidlandi. Olingan nay 200 g 98% li sulfat kislota to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi kaliy xlorat massasini (g) aniqlang.  
A) 4,9 B) 7,55 C) 24,5 D) 12,25
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, ushu aralashmaning massasini (g) hisoblang.  
A) 14 B) 8,05 C) 24,15 D) 28
102.  $\text{MeSO}_4$  ning 160 g 10%li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovitildi. Natijada 13,9 g  $\text{MeSO}_4 \cdot 7 \text{H}_2\text{O}$  cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadiagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
103.  $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$  ifodada x, y, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatidagi nisbatlari 5:1:4:4 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.  
A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Hajmiy nisbatlari mos ravishda 2.5 bo'lgan 15,68 litr (n.sh)  $\text{SiH}_4$  va  $\text{NH}_3$  gazlar aralashmasiga atomlar soni teng bo'lguncha  $\text{SiH}_4$  qo'shildi. Hosil bo'lgan gazlar aralashmasidagi  $\text{NH}_3$  ning hajmiy ulushini toping.  
A) 2/9 B) 2/7 C) 5/9 D) 5/7
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasi dagi  $\text{HCl}$  tugaguncha eritilganda  $\text{H}_2$  gazi ajraldi va  $\text{MeCl}_2$  ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan  $\text{MeCl}_2$  eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)  
A) 71 B) 66 C) 59 D) 46
106. Laboratoriya natriy nitritdan azot olish jarayonida azot bilan birga qo'shimcha sifatida  $\text{NH}_3$ ,  $\text{NO}$  va  $\text{O}_2$  gazlar aralashmasi ajralib chiqadi. Shu aralashma tarkibidagi azot (II) oksid qanday ajratib olinadi?  
A) qizdirilgan mis ustidan o'tlazilib  
B) nitrat kislota eritmasidan o'tkazilib  
C) temir (II) sulfat eritmasidan o'tkazilib  
D) distillangan suvdan o'tkazilib
107. 1827-yil V.Seyze tomonidan platina Pt(II) ning  $\pi$ -kompleksi olindi.  
 $\text{CH}_2=\text{CH}_2 + \text{K}_2[\text{PtCl}_4] + \text{H}_2\text{O} \rightarrow$  Seyze tuzi +  $\text{KCl}$   
Ushbu reaksiyaga muvofiq Seyze tuzining formulasini belgilang.  
A)  $K/\text{C}_2\text{H}_5\text{PtCl}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$   
B)  $K/\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$   
C)  $K/\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$   
D)  $K/\text{C}_2\text{H}_4\text{PtCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$
108. 26,8 g olma kislotaga stexiometrik nisbatda Na metali qo'shilganda olingan  $\text{H}_2$  ni 11,2 litr (n.sh.)  $\text{C}_2\text{H}_2$  bilan ta'sirlashtirildi. Natijada olingan gazlarni to'liq yondirish uchun necha mol havo kerak?  
A) 1,2 B) 7 C) 1,4 D) 1,8